

INTERNATSIONAL SO‘ZLARNING TARJIMADAGI MUAMMOLARI

Dilnavoz Abdumalikova

Namangan davlat chet

tillari instituti talabasi

abdumalikovadilnavoz9@gmail.com

Nurali Boqiyev

Namangan davlat chet tillari

instituti o'qituvchisi

MDWCT@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada internatsional so‘zlarning ingliz va o‘zbek tillari tarjimasida yuzaga keladigan muammolari tahlil qilinadi. Internatsional so‘zlar — turli tillarda shakli va ma’nosi o‘xshash bo‘lgan, ko‘pincha lotin yoki yunon manbalaridan kirgan birliklar — tarjima jarayonida ikki tomonlama rol o‘ynaydi: bir tomondan, ular tanish shakl tufayli tarjimon uchun “yordamchi” vazifasini bajaradi; ikkinchi tomondan, ma’no farqlari, kontekstual mos kelmaslik va “soxta do‘stlar” (false friends) hodisasi tufayli jiddiy xatolarga sabab bo‘lishi mumkin. Maqolada internatsional so‘zlarning nazariy asoslari, tarjimadagi funksiyasi, semantik tahlili, lingvopoetik jihatlari va amaliy tarjima misollari asosida muammolar tipologiyasi ochib beriladi. Tadqiqot natijasida internatsional so‘zlarni tarjima qilishda ularning real ma’nosini aniqlash, kontekstni hisobga olish va maqsadli tildagi stilistik imkoniyatlarni baholash muhimligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: internatsional so‘zlar, tarjima muammolari, soxta do‘stlar (false friends), semantik nomutanosiblik, ekvivalentlik

KIRISH

Globalashuv va tillararo aloqalarning kuchayishi natijasida internatsional so‘zlar turli tillarda ko‘proq qo‘llanila boshladi. Ingliz tili xalqaro muloqot tili sifatida o‘zbek tiliga ham ko‘plab internatsional so‘zlarning kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Biroq bu so‘zlarning shakliy o‘xshashligi ko‘pincha tarjimonlarni chalg‘itadi, chunki ma’no jihatidan to‘liq ekvivalentlik ko‘p hollarda mavjud emas. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek tillaridagi internatsional so‘zlar o‘rtasidagi semantik farqlar, stilistik nomutanosibliklar va “soxta do‘stlar” muammosi tarjima amaliyotida jiddiy xatolarga olib kelmoqda. Ushbu muammoning ilmiy jihatdan o‘rganilishi tarjima sifatini oshirish va madaniyatlararo muloqotni samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega.

Internatsional so‘zlar muammosi tarjimashunoslikda bir qancha yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Lingvistik jihatdan V.V.Akulenko, L.P.Kraysin kabi olimlar internatsional so‘zlarning kelib chiqishi va tasnifini ishlab chiqqan.

Tarjimashunoslikda esa M.Beyker, P.Nyumark, J.K.Ketford asarlarida internatsional soʻzlarning tarjimadagi roli va “soxta doʻstlar” (false friends) muammosi batafsil tahlil qilingan. Oʻzbek tarjimashunosligida G.Salomov, Q.Musayev, S.Qodirov asarlarida internatsional soʻzlarning oʻzbek tilidagi oʻrni va tarjima muammolari qisman yoritilgan. Biroq ingliz va oʻzbek tillari misolida internatsional soʻzlarning tarjimadagi muammolariga bagʻishlangan maxsus tipologik tadqiqotlar yetarli emas.

Ushbu maqolaning maqsadi – ingliz va oʻzbek tillari tarjimasida internatsional soʻzlarning yuzaga keltiradigan muammolarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, ularning tipologiyasini ishlab chiqish va tarjima strategiyalarini belgilash.

Ushbu maqola quyidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilgan:

- 1) Internatsional soʻz tushunchasining nazariy asoslarini aniqlash va ularni tasniflash;
- 2) “Soxta doʻstlar” (false friends) hodisasini ingliz va oʻzbek tillari misolida tahlil etish;
- 3) Internatsional soʻzlarning semantik tuzilishidagi farqlarni oʻrganish;
- 4) Badiiy va ilmiy matnlarda internatsional soʻzlarning stilistik funksiyasini aniqlash;
- 5) Amaliy tarjima misollari asosida muammolarni tipologiyalash va yechim strategiyalarini ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Internatsional soʻzlar (lot. internationalis – xalqaro) – turli tillarda shakli va maʼnosi oʻxshash boʻlgan, koʻpincha lotin yoki yunon manbalaridan kirgan leksik birliklardir. V.V.Akulenko (1972) internatsional soʻzlarni uch guruhga ajratadi:

- Umumiy internatsional soʻzlar: koʻpchilik tillarda bir xil shakl va maʼnoda qoʻllanadigan birliklar (masalan: telephone, television);
- Regional internatsional soʻzlar: maʼlum geografik yoki madaniy mintaqalarida keng tarqalgan birliklar;
- Milliy variantli internatsional soʻzlar: har bir tilda oʻziga xos shakl va maʼno xususiyatlariga ega boʻlgan birliklar.

L.P.Kraysin (2004) esa internatsional soʻzlarni ularning kelib chiqish manbalariga koʻra tasniflaydi: lotinizm, yunonizm, arabizm va boshqalar. Zamonaviy davrda esa ingliz tili internatsional soʻzlarning asosiy donoriga aylangan.

Tarjimada “soxta doʻstlar” (false friends) hodisasi

“Soxta doʻstlar” (false friends) – turli tillarda shakli oʻxshash, ammo maʼnosi qisman yoki butunlay farq qiladigan soʻzlar. Bu atama birinchi marta fransuz tilshunoslari M.Koessler va J.Derokini (1928) tomonidan kiritilgan. P.Nyumark (1988) “soxta doʻstlar”ni tarjimada eng muhim xato manbalaridan biri deb hisoblaydi.

Ingliz va oʻzbek tillaridagi “soxta doʻstlar”ni quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

Tip	Tavsif	Ingliz	O'zbekcha ma'no	Asl ma'no
To'liq soxta do'stlar	Shakli o'xshash, ma'nosi butunlay farqli	magazine	magazin (do'kon)	jurnal
Qisman soxta do'stlar	Ma'nolari qisman mos keladi	actual	aktual (dolzarb)	haqiqiy
Stilistik soxta do'stlar	Uslubiy jihatdan farqlanadi	problem	problem (salbiy)	muammo (neytral)

Semantik tahlil va stilistik jihatlar

Internatsional so'zlarning semantik tuzilishi turli tillarda turlicha rivojlanishi mumkin. M. Beyker (2018) bu hodisani "non-equivalence" (nomutanosiblik) doirasida o'rganib, internatsional so'zlar ko'pincha ma'no kengayishi yoki torayishiga uchraganligini ta'kidlaydi.

O'zbek tarjimashunosligida G'.Salomov (1978) badiiy matnlarda internatsional so'zlardan foydalanishning stilistik jihatlarini o'rgangan. Q. Musayev (2005) esa internatsional so'zlarning o'zbek tilidagi o'zlashtirish jarayonlarini tahlil qilgan.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot sifatli qiyosiy tahlil (qualitative comparative analysis) asosida amalga oshirilgan. Ingliz va o'zbek tillaridagi internatsional so'zlar tipologik jihatdan tasniflandi, ularning tarjimadagi muammolari tahlil etildi.

Tadqiqot materialini ingliz va o'zbek tillaridagi internatsional so'zlar, ularning tarjima ekvivalentlari, "soxta do'stlar" misollari, badiiy va ilmiy matnlardan olingan tarjima parchalar tashkil etadi. Misollar ikki tilli lug'atlar (Collins English Dictionary, Oxford English Dictionary, O'zbek tilining izohli lug'ati) va tarjima amaliyotidan tanlab olingan.

Ushbu maqola quyidagi tahlil usullaridan foydalanilgan:

- Komponent tahlil: internatsional so'zlarning semantik tarkibiy qismlarini ajratish;
- Qiyosiy-tipologik tahlil: ikki tildagi ekvivalentlarni solishtirish;
- Kontekstual tahlil: so'zlarning turli kontekstlardagi qo'llanishini o'rganish;
- Stilistik tahlil: so'zlarning uslubiy xususiyatlarini baholash.

Tadqiqot asosan ingliz va o'zbek tillari misolida internatsional so'zlar bilan chegaralangan. Boshqa tillar (rus, fransuz, nemis) bilan qiyosiy tahlil maqola doirasiga kiritilmagan.

NATIJALAR

1. Internatsional soʻzlarning nazariy asoslari va tasnifi

Internatsional soʻzlarni quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:

Guruh	Xususiyati	Ingliz	Oʻzbek
Lotin va yunon ildizlari	Ilmiy-texnik terminlar	information, culture, problem	informatsiya, kultura, problem
Ingliz tilidan oʻzlashgan	Zamonaviy texnologik atamalar	computer, internet, marketing	kompyuter, internet, marketing
Qisman moslashgan	Shakli oʻzgargan	telephone	telefon

Oʻzbek tilidagi internatsional soʻzlarning aksariyati ikki yoʻl bilan kirgan: toʻgʻridan-toʻgʻri ingliz tilidan (kompyuter, internet) yoki rus tili orqali (informatsiya, kultura). Bu ikki manba tufayli baʼzi soʻzlarda shakl farqlari yuzaga kelgan (masalan: ingl. information → oʻzb. informatsiya).

2. “Soxta doʻstlar” (false friends) muammosi

Ingliz va oʻzbek tillaridagi “soxta doʻstlar” quyidagi tiplarga ajratiladi:

A. Toʻliq soxta doʻstlar (shakli oʻxshash, maʼnosi butunlay farqli)

Ingliz	Oʻzbekcha “ekvivalent”	Ingliz maʼnosi	Oʻzbek maʼnosi
magazine	magazin	jurnal	doʻkon
lunatic	lunatik	aqldan ozgan	oy savdosi tushgan
fabric	fabrika	gazlama, mato	zavod
prospect	prospekt	istiqbol, kutilgan natija	keng koʻcha

B. Qisman soxta doʻstlar (maʼnolari qisman mos keladi)

Ingliz	Oʻzbekcha “ekvivalent”	Ingliz maʼnosi	Oʻzbek maʼnosi
actual	aktual	haqiqiy, amaldagi	dolzarb, muhim
intelligent	intelligent	aqli, ziyoli	ziyoli (faqat inson haqida)
artist	artist	rassom; sanʼatkor	aktyor; sirk artisti
decade	dekada	oʻn yillik	oʻn kunlik

Actual va aktual misoli klassik “soxta doʻst” hisoblanadi. Ingliz tilida actual “haqiqiy, mavjud, amaldagi” maʼnolarini bildirsa, oʻzbek tilidagi “aktual” soʻzi rus tilidagi актуальный (“dolzarb”) maʼnosini saqlab qolgan. Bu farq tarjimada jiddiy xatolarga sabab boʻladi.

C. Stilistik soxta doʻstlar (uslubiy jihatdan farqlanadi)

Ingliz	O'zbekcha "ekvivalent"	Ingliz stilistikasi	O'zbek stilistikasi
problem	problem	neytral	salbiy konnotatsiya
idea	ideya	neytral	ilmiy-falsafiy atama
method	metod	neytral	ilmiy usul

3. Semantik tahlil: ma'no kengayishi va torayishi

Internatsional so'zlar o'zbek tiliga o'zlashganda ko'pincha semantik o'zgarishlarga uchraydi:

Ma'no torayishi (semantic narrowing):

Ingliz	Keng ma'nosi	O'zbek	Tor ma'nosi
intelligent	aqli (odam va hayvon)	intelligent	faqat ziyoli odam
artist	rassom, musiqachi, aktyor	artist	aktyor, sirk artisti
sympathy	hamdardlik, xayrixohlik	simpatiya	ishqiy qiziqish

Ma'no kengayishi (semantic widening):

Ingliz	Tor ma'nosi	O'zbek	Keng ma'nosi
problem	muammo, masala	problem	har qanday qiyinchilik
program	dastur, reja	programma	televizion ko'rsatuv, dastur

Ma'no siljishi (semantic shift):

Ingliz	Ma'nosi	O'zbek	Ma'nosi
magazine	jurnal	magazin	do'kon
fabric	gazlama	fabrika	zavod

4. Lingvopoetik va Stilistik Jihatlar

Badiiy va ilmiy matnlarda internatsional so'zlarning qo'llanishi stilistik jihatdan farqlanadi:

Ilmiy matnlarda:

- Internatsional so'zlar asosan termin sifatida ishlatiladi
- Aniqlik va bir ma'nolilik talab qilinadi
- "Soxta do'stlar" xatolarga olib kelishi mumkin

Badiiy matnlarda:

- Internatsional so'zlar uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi
- Formal (rasmiy) yoki informal (norasmiy) uslubni yaratishda ishlatiladi

- Stilistik farqlar hisobga olinishi kerak

Stilistik farqlarga misollar:

Ingliz	O'zbek ekvivalenti	Stilistik xususiyat
problem	muammo (neytral) / masala (rasmiiy) / mushkul (og'zaki)	Problem so'zi o'zbek tilida ko'pincha salbiy konnotatsiyaga ega
information	axborot (rasmiiy) / ma'lumot (neytral) / xabar (og'zaki)	Informatsiya so'zi asosan texnik sohada qo'llaniladi

Badiiy matn misoli:

Ingliz: "We have a serious problem," he said quietly.

Noto'g'ri tarjima: "Bizda jiddiy problem bor," dedi u jimgina.

To'g'ri tarjima: "Bizda jiddiy muammo bor," dedi u jimgina.

Birinchi variantda "problem" so'zini to'g'ridan-to'g'ri ishlatish o'zbek tiliga mos kelmaydi, chunki bu so'z o'zbek tilida norasmiiy nutqda ko'proq qo'llaniladi. "Muammo" so'zi esa badiiy matn uslubiga mos keladi.

5. Amaliy tahlil: tarjima misollari

Quyida ingliz matnlaridan o'zbek tiliga tarjimada internatsional so'zlarning qo'llanishi tahlil qilinadi:

Misol 1:

Ingliz	The actual results were different from our expectations.
Noto'g'ri tarjima	Aktual natijalar kutganimizdan farq qildi.
To'g'ri tarjima	Haqiqiy natijalar kutganimizdan farq qildi.

Xato tahlili: "Aktual" so'zi "actual"ning "soxta do'sti" bo'lib, ingliz tilidagi ma'no "haqiqiy"dir. Tarjimon "aktual" so'zini ishlatib, ma'noni xato bergan.

Misol 2:

Ingliz	He works as an artist in a small gallery.
Noto'g'ri tarjima	U kichik galereyada artist bo'lib ishlaydi.
To'g'ri tarjima	U kichik galereyada rassom bo'lib ishlaydi.

Xato tahlili: Ingliz tilida artist "rassom" ma'nosida, o'zbek tilida esa "artist" "aktyor" yoki "sirk artisti" ma'nosida qo'llaniladi. Tarjimon kontekstni hisobga olmagan.

Misol 3:

Ingliz	This is a very intelligent approach to the problem.
Noto'g'ri tarjima	Bu muammoga juda intelligent yondashuv.

To'g'ri tarjima	Bu muammoga juda aqlli / oqilona yondashuv.
-----------------	---

“Intelligent” o‘zbek tilida faqat inson sifatida “ziyoli” ma’nosida qo‘llaniladi. “Aqlli yondashuv” yoki “oqilona yondashuv” varianti to‘g‘ri.

Misol 4:

Ingliz	The magazine published a new article on this topic.
Noto'g'ri tarjima	Magazin bu mavzuda yangi maqola chop etdi.
To'g'ri tarjima	Jurnal bu mavzuda yangi maqola chop etdi.

“Magazine” va “magazin” to‘liq soxta do‘stlardir. Tarjimon bu farqni bilmasa, jiddiy xatoga yo‘l qo‘yadi.

MUHOKAMA

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, internatsional so‘zlar tarjimada ikki tomonlama rol o‘ynaydi:

Yordamchi jihatlari:

1. Tanish shakl tufayli tarjimon uchun boshlang‘ich tayanch nuqtasi bo‘ladi;
2. Ilmiy-texnik matnlarda terminlarning bir xilligini ta‘minlaydi;
3. Tarjima tezligini oshirishi mumkin.

To‘siq (muammo) jihatlari:

1. “Soxta do‘stlar” tufayli ma‘no xatolariga olib keladi;
2. Semantik farqlar (ma‘no torayishi, kengayishi, siljishi) hisobga olinmasa, xatolik yuzaga keladi;
3. Stilistik nomutanosiblik badiiy matnlarda uslubiy xatolarni keltirib chiqaradi;
4. Rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar o‘rtasida shakl va ma‘no farqlari mavjud.

“Soxta do‘stlar” tipologiyasi

Ingliz va o‘zbek tillari misolida “soxta do‘stlar”ni quyidagi tipologiya asosida tasniflash mumkin:

Tip	Xususiyati	Misollar
To‘liq soxta do‘stlar	Shakli bir xil, ma‘nosi butunlay farqli	magazine–magazin, fabric–fabrika
Qisman soxta do‘stlar	Ma‘nolari qisman mos keladi	actual–aktual, intelligent–intelligent
Stilistik soxta do‘stlar	Uslubiy jihatdan farqlanadi	problem–problem, idea–ideya
Grafik soxta do‘stlar	Imlosi farqli, shakli o‘xshash	information–informatsiya

Tarjima strategiyalari

Internatsional soʻzlarni tarjima qilishda quyidagi strategiyalarni qoʻllash tavsiya etiladi:

1. Kontekstni tahlil qilish: Internatsional soʻzning kontekstdagi aniq maʼnosini aniqlash. Masalan, artist soʻzi galereya kontekstida “rassom”, teatr kontekstida “aktyor” deb tarjima qilinadi.

2. Lugʻat va korpuslardan foydalanish: Soʻzning maʼnosini ikki tilli lugʻatlar va korpuslar orqali tekshirish.

3. “Soxta doʻstlar” roʻyxatidan foydalanish: Eng koʻp uchraydigan “soxta doʻstlar” roʻyxatini bilish va ularga alohida eʼtibor berish.

4. Stilistik moslikni taʼminlash: Badiiy matnlarda internatsional soʻzning oʻzbek tilidagi stilistik ekvivalentini tanlash.

5. Deskriptiv tarjima: Agar internatsional soʻz oʻzbek tilida toʻliq ekvivalentga ega boʻlmasa, uning maʼnosini izohlab berish.

Amaliy tavsiyalar:

Muammo	Yechim	Misol
Toʻliq soxta doʻst	Toʻgʻri ekvivalentni qoʻllash	magazine → jurnal (magazin emas)
Qisman soxta doʻst	Kontekstga qarab tanlash	actual → haqiqiy / amaldagi / joriy
Stilistik farq	Stilistik mos variantni tanlash	problem → muammo / masala (kontekstga qarab)

XULOSA

Internatsional soʻzlarning ingliz va oʻzbek tillari tarjimasidagi muammolarini oʻrganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Nazariy jihatdan: Internatsional soʻzlar turli tillarda shakli va maʼnosi oʻxshash boʻlgan leksik birliklar boʻlib, ularni kelib chiqishi, qoʻllanish doirasi va semantik tuzilishiga koʻra tasniflash mumkin. Oʻzbek tilidagi internatsional soʻzlar asosan lotin, yunon va ingliz manbalaridan kelgan boʻlib, koʻpchiligi rus tili orqali oʻzlashgan.

“Soxta doʻstlar” muammosi: Ingliz va oʻzbek tillari oʻrtasida toʻliq soxta doʻstlar (magazine–magazin, fabric–fabrika), qisman soxta doʻstlar (actual–aktual, intelligent–intelligent) va stilistik soxta doʻstlar (problem–problem, idea–ideya) mavjud. Ushbu hodisa tarjimada eng koʻp uchraydigan xato manbalaridan biridir.

Semantik oʻzgarishlar: Internatsional soʻzlar oʻzbek tiliga oʻzlashganda maʼno torayishi (intelligent, artist), maʼno kengayishi (problem, program) yoki maʼno siljishi (magazine, fabric) kabi semantik oʻzgarishlarga uchraydi.

Stilistik jihatlar: Badiiy va ilmiy matnlarda internatsional soʻzlarning qoʻllanishi stilistik jihatdan farqlanadi. Oʻzbek tilida baʼzi internatsional soʻzlar (masalan, problem, ideya) oʻziga xos stilistik konnotatsiyaga ega boʻlib, ularni tarjimada hisobga olish zarur.

Amaliy yechimlar: Internatsional soʻzlarni tarjima qilishda kontekstni tahlil qilish, ikki tilli lugʻat va korpuslardan foydalanish, “soxta doʻstlar” roʻyxatini bilish, stilistik moslikni taʼminlash va kerak boʻlganda deskriptiv tarjimani qoʻllash tavsiya etiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda internatsional soʻzlarning korpus lingvistikasi usullari asosida keng qamrovli tahlilini oʻtkazish, ingliz va oʻzbek tillaridagi “soxta doʻstlar”ning elektron bazasini yaratish va tarjimonlar uchun amaliy qoʻllanma ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Akulenko, V. V. (1972). Voprosy internacionalizatsii slovarnogo sostava. Xarkov universiteti nashriyoti.
2. Baker, M. (2018). In other words: A coursebook on translation (3rd ed.). Routledge.
3. Koessler, M., & Derocquigny, J. (1928). Les faux amis ou les trahisons du vocabulaire anglais. Vuibert.
4. Krysin, L. P. (2004). Russkoe slovo, svoe i chuzhoe. Yazyki slavyanskoy kultury.
5. Musayev, Q. (2005). Tarjima nazariyasi asoslari. Fan.
6. Newmark, P. (1988). A textbook of translation. Prentice Hall.
7. Salomov, G. (1978). Badiiy tarjima nazariyasi asoslari. Oʻqituvchi.
8. Salomov, G. (1983). Tarjima sanʼati. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti.